

**Farg‘ona davlat universiteti
adabiyotshunoslik kafedrasи professori,
filologiya fanlari doktori H.Jo‘rayev
taqrizi ostida**

**J.Sayidolimov
FarDU
Adabiyotshunoslik kafedrasи o‘qituvchisi.
sayidolimovjavoxir@gmail.com
+998 99 609 16 42
Bo‘ronova Gulira’no Odiljon qizi
Far DU, filologiya fakulteti 2-kurs talabasi
+998 99 539 98 03**

NAVOIYNING “XAMSA” DOSTONI HAMD QISMLARI MA‘NO VA MAVZU KO‘LAMI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoni haqida umumiylumot berilib, beshlikdagi hamd qismlarining badiiy jihatlari, mazkur qismlarning dostonning boshqa qismlari bilan aloqadorligi, keyingi boblarga ta’siri, mazmuni tahlil qilingan va bir-biriga qiyoslab ko‘rsatilgan. Shu bilan bir qatorda ijodkorning badiiy mahorati hamda ijodiy niyati hamd qismlar orqali izohlab berilgan. Bu orqali Sharq adabiyotida hamd qismlarning o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Ilohiyot kuychisi, hamd, baroati istehlol, mavzu, yo‘nalish.

ЭПОС “ХАМСА” НАВОИ ХАМД ЧАСТИ ЗНАЧЕНИЕ И ПРЕДМЕТНАЯ ОБЛАСТЬ

Аннотация: В этой статье дается обзор эпоса Алишера Навои “Хамса”, анализируются художественные аспекты частей пятикнижия “Хамд”, связь этих частей с другими частями эпоса, влияние на последующие главы, содержание и сравниваются друг с другом. В качестве альтернативы хвалили художественное мастерство создателя, а также его творческие намерения. Благодаря этому в восточной литературе выражена специфика похвалы.

Ключевые слова: Певец богословия, хвала, бароати потребление, тема, направление.

THE PRAISE PARTS OF NAWAI'S EPIC “KHAMSA” ARE THE SCOPE OF MEANING AND SUBJECT

Annotation: This article gives an overview of Alisher Navoi's epic “Khamsa”, analyzes and compares the artistic aspects of the five praise parts, the relationship of the parts in question with other parts of the epic, the impact on subsequent chapters, the content. In parallel, the artistic skill of the creator and his creative intention are explained through praise pieces. Through this, Eastern literature shows the special aspects of praise.

Keywords: Theological singer, praise, baroati irony, theme, direction.

Sharq adabiyotidagi o‘zigacha bo‘lgan an’analarni o‘zgacha uslub bilan davom ettirgan hamda mazkur an’analarga mustaqil yo‘nalish bilan kirib borib, ularni boyita olgan Alisher Navoiy turkiy tilning rivoj topishida yangi davrni boshlab bergen. Turkiy tilning imkoniyatlari to‘laqonli ochib berilgan asari, shubhasiz, “Xamsa” dostoni hisoblanadi. Mazkur asar nafaqat o‘zining poetik va badiiy jihatlari, balki mazmun tomonidan ham ona tilimizning butun nafosatini ko‘rsatib bera olgan. Masalan, ushbu “beshlik”ning dastlabki uzvi bo‘lmish “Hayrat ul-abror” dostoni muqaddimasi:

“Bismillohir-raxmonir Rahim,

Rishtag'a chekti necha durri yatim”

degan bayt bilan boshlanib qolgan misralarda esa bu ilohiy kalimaning har bir harfiga alohida to‘xtalib chiqilgan. Mazkur baytlar birgina “Hayrat ul-abror” dostoni uchungina emas, balki qolgan “Xamsa” dostonlari uchun ham muqaddima qism hisoblanadi. “Basmala” yakuni esa Allohnning lutfi, qahri haqidagi bayt bilan yakunlanadi:

Lutfi bila borchaga mavjudluk,

Qahridin- o‘q bo‘lg’usi nobudluk.

“Hayrat ul-abror”da keltirilgan “Avvalg’i munojot”da Allohnning yaratuvchilik qudrati, unga bo‘lgan ishq-muhabbat qaysi darajada ekanligi, bu muhabbatning qanday bo‘lishi haqida fikr yuritiladi.

Dema quyosh, ravzayi rizvon degil,

Ravza ichinda guli xandon degil.

Yuqorida keltirilgan baytda husnni quyosh, ravzayi rizvon, guli xandonga o‘xshatilyapti. O‘xshatishlar orasida darajalanish kuzatilyapti. Bu darajalanish istiora va ruju san’ati orqali yaxlit kompozitsiya hosil qilyapti.

“Ikkinchi munojot”da esa Allohnning yakkaligi, yaratiqlari go‘zal ekanligi, har bir yaratilgan narsada hikmat yashirin ekanligi haqida so‘z boradi:

Kimki boshi sajdada – masjudisen,

Kimki yuzi qiblada – ma’budisen.

Tengri qolib boqiyu dayyor yo‘q,

Yor muabbad bo‘lub ag’yor yo‘q.

Bu olamni yo‘qdan bor qilgan, Allohdan o‘zga hamma narsalar, mavjudliklar yo‘q bo‘lib ketishi, faqatgina Allohnning o‘zi abadiy hayot ekanligi haqida Navoiy fikr yuritib, O‘ziga “qiyomat kunida imon hamroh bo‘lishini” so‘raydi:

Ul nafas imon manga hamroh qil,

Ko‘nglum aro maxvi sivalloh qil.

“Uchinchi munojot”da Alloh barcha yaratiqlarini latif qilgani, ularning hammasidan ham insonni sharif aylagani haqida, uning jabborligi, qahhorligi haqida aytiladi:

Borchasini garchi latif aylading,

Borchadin insonni sharif aylading.

Oni munga, muni anga band etib,

Bir-biriga borchani payvand etib.

“To‘rtinchi munojot”da Allohning karami vasfi, uning inoyati to‘g’risida fikr yuritilib, lirik qahramon o‘zining qilgan gunohlari uchun Allohdan umid qilib, najot so‘rab yozadi. “Hayrat ul-abror” dostoni hamd qismida, asosan, Allohning sifatlarida yagonaligi, qahhorligi, jabborligi va uning yaratiqlari go‘zalligi, ularning barchasidan inson yuqoriqoq turishi haqida so‘z boradi.

“Farhod va Shirin” dostoni esa quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Bihamdik fath abvob ul-maoni,

Nasib et ko‘ngluma fath o‘lmak oni.

Mazmuni: Ma’no eshiklarini ochtirganga hamd bo‘lsin, uni ochishni ko‘nglimga nasib et. Go‘yoki Navoiy endi ma’no eshiklarini zabt etishga kirishyapti. Hamd qismida esa baroati istehlol san’atidan unumli foydalanilib, asarning g’oyasiga mos ravishda, unda qatnashadiga obrazlar, vaziyatlarga mos o‘rinlar bilan ham asarga, ham yaratiqlari orqali Allohning qudratiga baho beriladi:

Bu rangin safha, balkim dard bog’i,

Ayon har lolasida ishq dog’i.

Agar sen Farhod, Shirinlarni jam qilib o‘qisang, go‘yoki unga yetish yo‘lidagi “shabistonida bir parvonayu sham” dek bo‘ladi.:

O‘kush Farhodu Shirin aylasang jam

Shabistonida bir parvonayu sham.

“Munojot” qismida esa qahramon o‘zining uyquda ekanligi, yo‘q b’lganligi, vujudida tan, bosh, ko‘z kabi a’zolar bo‘lмаганлиги, butun insoniy tuyg’ular birma- bir berilganligi, odam qilib yaratilganligi, uning har bir qilgan ishi “Lavhi Mahfuz”da borligi haqida aytib, o‘zining haddini bilmasdan so‘zlagan gaplariga uzur aytib, najot so‘raydi:

Ilohiy, angakim yo‘q erdi budum,

Adam uyqusida erdi vujudim.

Ilohiy, boqmag’il majnunlig’imga,

Karamdin chora qil mahzunlig’imga.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Farhod va Shirin” dostoni hamd qismi dastlabki dostondan farqli ravishda, ham asar g’oyasi, ham tasavvufiy bilimlarni o‘zida aks ettirib, o‘quvchin kelgusidagi asar syujetiga tayyorlaydi. Oldindan asardagi obrazlar qanday, nimaning ramzi bo‘lib kelishi haqida fikr yuritiladi.

“Layli va Majnun” dostonidagi hamd qismida esa elning yo‘q bo‘lishi abadiy ekanligi, Allohnинг zoti esa fanoni foni qilgani, Allohnинг husnni dilga yoqadigan qilib yaratgani, ko‘ngilni bo‘lsa unga asir qilgani, Laylining mazhar vazifasini bajarishi haqida so‘z boradi:

Ey aqlg'a foizi maoniy,

Boqiyasenu borchcha xalq foni.

Ey har sorikim qilib tajalli

Ul mazhar o‘lub jahonda Layli.

Mazkur dostonda ham yuqoridagi asarlarda kuzatilgan mavzu Allohnинг yaratish qudrati haqida so‘z boradi, lekin “Farhod va Shirin” da bu jihat ishq, dard kabi tushunchalar bilan bog’lansa, “Layli va Majnun”da husnning ko‘ngillarni asir qilishi (“majnun qilishi”) yo‘nalishiga so‘z burilib, asar g’oyasiga kitobxon tayyorlanadi.

“Sab’ayi sayyor” dostonidagi hamd qismida ham shu holat kuzatiladi, lekin yo‘nalish boshqacharoq: asardagi Bahrom, Dilorom obrazlari, 7 raqami bilan bog’liq holatlarga shu qismida ishoralar, ular bilan chizgilar uchraydi. Mazkur qismida ishq obrazi gul va bulbul obrazlari, ya’ni asar qhramonlariga mos tarzda berilgan. So‘z oxirida esa gul va bulbul bir bahona ekanligi, aslida ma’shuqlikka u loyiq ekanligi haqidagi baytlar uchraydi:

Gulga chun berdi tob husnu jamol,

Anga bulbulni qildi sheftayi hol.

Bulbulu gul bahonadur borisi,

Balki sendin fasonadur borisi.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi hamd qismida dastlabki baytdan baroati istehlol san’atidan foydalanish boshlanadi:

Xudoyo, musallam xudolik sanga,

Birov shahki, da’bi gadolik sanga.

Barcha narsalarning yaratishdan maqsad ularning hammasi odam uchun yaratilganligi, odam ularning ichida eng azizi ekanligi haqida so‘z boradi:

Karam birla xalq aylagay olame,

Bu olamda maqsud anga odame.

G’araz odame anga olam tufayl,

Nekim g’ayri olamdur, ul ham tufayl.

“Xamsa” dostonlari hamd qismlarini xuddi asar syujeti yoki g’oyasi singari badiiy jihatlari bilan ajralib turadi. Ko‘p hollarda mazkur asarni o‘quvchilar orasida faqat syujet bilan cheklanib

qolayotganliklari, shu soha bilan shug'ullanuvchilar esa bu asarlarni ommaga faqat ramzlarini yoki syujetini singdirayotganliklari, asardagi bu qismlarning o'quvchidan "uzoqlashishiga" olib kelyapti. Aslida Sharq mumtoz poetikasining rivojida mana shunday qismlarning alohida o'rni bor. Ushbu uzvlarning mavjudligi asarning badiiy nafosatini yanada oshirib, o'quvchini yanada o'ziga jalb qiladi. Misol uchun, "Hayrat ul-abror" dostoni qolgan dostonlar uchun ham kirish qism vazifasini o'taganligi uchun, ushbu asar boshqa "Xamsa" lardagidek tarbiyaviy asos, dasturul amal bo'lib xizmat qilganligi sababli undagi hamd qismi ham xuddi shunday boshqa hamdlardan o'zining poetik go'zalligi, ma'nodorligi bilan ajralib turadi. Butun bir asarning g'oyasini umumiy holatda o'zida mujassamlashtirgan. "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ayi sayyor", "Saddi Iskandariy" dostoni hamd qismlarining umumiy jihatni shundaki, ularning barchasi muqaddima qismidayoq o'quvchini asarni o'qish va anglash davomida qanday syujet, g'oya, ramz, so'z go'zalliklari, ajoyib topilmalar kutib turganligi haqida ishoralar beradi. Bu ishoralar, nafaqat asarning g'oyasiga, balki butunligicha Alisher Navoiy ko'zlagan komil inson g'oyasiga ham asarning uslubidan kelib chiqqan holda chuqur kirib boradi. "Hayrat ul-abror" dostonida hamd qismini bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, "ilm va anglash" desak, xato bo'lmaydi. Go'yoki bu dostonda olam va odam bilan bog'liq voqeа-hodisalar yoki bilimlar haqida to'liq ma'lumot berilgan. Farhod va Majnun obrazni orqali haqiqiy solik qanday bo'lishi, Bahrom va Iskandar obrazlari orqali haqiqiy shoh qanday bo'lishi haqida yaqqol namunalar ketirilgan. Ularning namuna bo'lishi faqatgina syujet bilan emas, balki shu asarlarning hamd qismlarida ham belgilab qo'yilgan. Bir so'z bilan aytganda, Alisher Navoiyning "Xamsa" dostoni faqat asarnig syujeti, ramzlar bilan tushunmaslik, asarni qolgan qismlar: hamd, na't kabilar bilan birgalikda o'rganish ham Navoiyni yanada chuqurroq anglab, uning poetik mahoratiga yanada muakkammalroq kirib borishga yordam beradi, ham asarning to'liq matni shundagina o'rganilgan bo'ladi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Абдуқодир Ҳайитметов ва бошқалар. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аббор. – Тошкент. Faafur Fулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1989.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2021.
3. Порсо Шамсиев, Суюма Фаниева ва бошқалар. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. – Тошкент. Фан нашриёти. 1992.
4. Dilnavoz Yusupova. Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2013.